

UNDALMALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI (Saida Zunnunova she'riyati misolida)

Ulashova Naima

TerDU O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek xalqining suyukli shoirasi Saida Zunnunova ijodida uchrovchi undalmalar lingvopoetik tahlilga tortildi. Undovlar, undalmalar, ularning vazifalari zamiridagi turli-tuman ma'no ottenkalari ba'zan shoir she'riyatidagi butun turkum mazmun-mantig'inining yetakchi motiviga aylanadi.

Kalit so'zlar: lingvistika, lingvopoetika, badiiy asar tili, undalmalar.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СЧЕТОВ (На примере поэзии Саиды Зуннуновой)

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы мотивы, встречающиеся в творчестве любимой поэтессы узбекского народа Саиды Зуннуновой. Восклицания, позывы и различные оттенки смысла в основе их задач становятся иногда ведущим мотивом всего ряда содержательно-логических в поэзии поэта.

Ключевые слова: языкознание, лингвопоэтика, язык художественных произведений, мотивации.

LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF INVOICES (In the example of Saida Zunnunova's poetry)

ABSTRACT

In the article, the impulses found in the works of Saida Zunnunova, the beloved poetess of the Uzbek people, were analyzed. Exclamations, urges, and various shades of meaning at the core of their tasks sometimes become the leading motif of the entire series of content-logic in the poet's poetry.

Key words: linguistics, linguopoetics, language of artistic works, motivations.

KIRISH

Saida Zunnunova she'riyatini jo'shqin, ta'sirchan etgan sintaktik omillardan biri undalmalardir. Albatta, ularni shoiraning – lirk qahramonning uslub tarzi, odamlar, narsa-hodisalarga bo'lgan ko'tarinki ruhdagi kayfiyati taqozo etadi. Ilk ijodidan boshlab to hozirgacha yaratilayotgan she'rlarida undalmalar ishtiroki ustuvor vositalardan biridir. Shoirada o'zgalarda kam uchraydigan bir xususiyat borki, bu ham bo'lsa, bevosita undalmalarga daxldor. Ya'ni, Saida Zunnunova lirk — meni

undalmalari nafaqat insonga, uning muayyan tuyg‘ulari, masalan, muhabbatga, balki nabotot, maxluqot, mavjudot, tabiat hodisalariga ham qaratiladi va bu uning asarlari pafosiga alohida ko‘tarinkilik, teranlik bag‘ishlaydi.

N.Ahmedovaning fikricha, undalma so‘zi sof o‘zbekcha so‘z bo’lsa ham, murojaat birligi birikmasiga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. “Undalma” semasi esa tartiban undan keyin turadigan va "murojaat" semasi asosida kelib chiqadigan semadir¹. Undalma terminiga keng ma’noda qaralsa, semantik tarkibida “tinglovchiga murojaat etish orqali uni nimagadir undash, da’vat qilish, buyurish, e’tiborni jalb qilish, murojaat qilish, chaqirish yoki chaqiriq” kabi ma’nolar mavjud. Undash semasi birlamchi bo’lib, ulardagi g’azab-nafrat, qistash, ko’tarinki kayfiyat, istak – xohish, maslahat, achinish, iltimos, yalinish, buyurish, taajjub ma’nolari so’zlovchining tinglovchiga bo’lgan turli konnotativ ma’nolarini ifodalaydi. Bizningcha, undalma termini tilshunoslik uchun, murojaat birligi lingvopoetika uchun xos va undalmaning ma’no tarkibida asosiy sema sifatida “tinglovchi diqqatini jalb qilish” namoyon.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, Saida Zunnunova lirkasida murojaat motivi hamma vaqt yetakchi ifoda usullaridan bo‘lib kelgan. Undagi undalma qo’llashning yorqin va ko‘p hollari quyidagi yo‘nalishlarda kuzatiladi:

- **Insoniy his-tuyg‘ular, holatlar, a’zolar va qadriyatlarga qaratilgan undalmalar:** odam, g‘ussa, sog‘inch, g‘am, sevgi, xotira, hasad, havas, anduh, baxt, qadr kabilarga;

Ayrim misollarga murojaat qilaylik:

Tarixni so‘zlama menga, ey odam,

Bitta chalib bergin «Cho‘li iroq»ni. (—Cho‘li iroq...)

- **Nabotot olami narsalariga qaratilgan undalmalar:** tabiat, kuz, qish, bahor, yoz, maysa, chinor, terak, arg‘uvon, gul, tol va hokazolar;

Anvoysi ranglari entiktiradi,

Dillar yasharadi, ko‘zlar yashnaydi.

Eh, gullar, hamisha sizga tashnaman,

Yuragim hamisha sizga tashnaydi. (Toshkent gullari)

Qadamlar, sharpasiz og‘ir qadamlar,

Ko‘zlar pardasiga qalqqan achchiq yosh. (—So‘nggi yo‘l)

¹ Ahmedova N. O’zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol.fan.nom.diss...avtoref. -T.,2008. 7-b.

- **Odamdan boshqa maxluqot vakillariga:** tulpor, ot, it, kapalak, oy, quyosh, yulduz, samo, qush, yomg‘ir, shamol va boshqalar;

O, zamin, biz senga ko ‘p qildik ta ‘zim,

Ona deb atadik, ulug`ladik bot.

Ammo ne`matlaring hamma, hammasi

Tanamizdan yulangan parcha-ku, hayhot. (Shoirni eslab)

- **Ilohga murojaatlar:** Xudovand, Xudo, Olloh, Tangri, Parvardigor, Yaratgan kabi sifatlar, ismlar ila murojaatlar qilish.

Shoira mazmunni ba’zan batamom undalmali motivda ifodalash orqali poetik jozibani kuchaytiradi:

Sevgi o ‘t tashlasa yuragingizga,

Oydin tun bermasa tinchlik va uyqu.

Olam kuylaganday ko ‘rinsa sizga

Hamda asir etsa ajib bir tuyg ‘u

Tasalli izlaysiz hislaringizga,

G‘azallar yodlaysiz varaqlab kitob.

Guldek qalbingizni yashnatar shunda

Sevgi satrlari bo ‘lib oftob.

Shunday kezda, qizlar, pok ishqiningizga

Tarjimon bo ‘lolsa biron ta baytim,

Sirdosh bo ‘lib qolsam hamisha sizga,

Shu mening orzuyim, shodligim, baxtim.

(—Qizlarjon)

Ushbu parchada undalmalar miqdorigina emas, ularning ayni bir vaqtida qofiyadoshlik hosil qilib kelishlari ham, undalmalarning o‘z sifatdosh, aniqlovchilari bilan kelishlari ham diqqatga sazovordir. Ba’zan shoirning yaxlit, yagona undalmasi ega-kesimlilik munosabatini hosil qilib, murojaat his-hayajon quvvatini yuzaga chiqaradi:

Qadrlasang insonligingni,

Vafo qilsang o ‘zingga o ‘zing,

Faqat-faqat shunda men bilan

To ‘gri kelur taqdir - yulduzing.

Shoira muayyan undalmalarni, u kimga yoxud nimaga qaratilganidan qat’i nazar, yarashiq undov so‘zlar bilan birgalikda qo‘llab, ma’no kuchini oshiradi:

Shu so ‘roqqa tutsa ko ‘nglimiz bizni,

Balki o ‘lim yana ketardi yiroq.

Odamlar! Qadrlang bir-biringizni,

Gul ham, muhabbat ham tirikka kerak.

(—So‘nggi yo‘l)

Undovlar, undalmalar, ularning vazifalari zamiridagi turli-tuman ma’no ottenkalari ba’zan shoir she’riyatidagi butun turkum mazmun-mantig‘ining yetakchi motiviga aylanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bu she’riyat uchun undalmalar shunchaki so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki murojaat vositasigina emas. Shoira favqulodda, hech kutilmagan narsalar, hodisalar, kechinmalarga ham xilma-xil mazmun va shakllardagi undalmalar bilan murojaat qiladi. Natijada fikrning, tashbeh, timsolning, obraz yoki asar pafosining jozibadorligi kuchayadi. Ayni paytda, she’riy nutq uchun undalmalilik borasida ham o‘zbek tilining nihoyatda keng miqyosli imkoniyatlarga ega ekanligi ham his qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Умуркулов Б.Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, «Фан», 1990.
2. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. 128 б.
3. Мамажонов А., Маҳмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1996.
4. Ahmedova N. O’zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol.fan.nom.diss...avtoref. -T.,2008. 7-b.
5. Botyrova M., Bozorova G. THE USE OF METAPHOR IN FICTION //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 82-89.
6. Baxodirovna, B. M. (2023). Advertising Discourse as a Research Object of Linguistics. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(4), 233-237.
7. Botirova, M., & Qayumova, M. (2022). Language Characteristics of Phraseological Units. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences*, 1(1), 80-83.
8. Makhliyo, B. (2022). Linguistic Features of Artistic Similes. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 41-46.
9. Qizi, B. M. B., & Sanjarovich, I. S. (2021). BADIY MATNNING LINGVISTIK MOHIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 46-51.